

**Sotvoldiyeva Maftunaxon Rahmonali qizi**  
**FaDU 2-bosqich talabasi**

---

**ALISHER NAVOIYNING “YOR UZAR BO’LSA MUHABBAT RISHTASIN “ G’AZALI  
TAHLILI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Yor uzar bo’lsa muhabbat rishtasi “g’azali, undagi badiiy san’atlar haqida fikr yuritilganva g’azalning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari ifodalangan.

**Kalit so’zlar:** G’azal, badiiy san’atlar,g’oya, so’z qo’llash mahorati , oshiq,yor.

---

**KIRISH**

Alisher Navoiy bobomiz bizning go'zal tilimizda juda ko'plab o'zining nodir asarlarini yaratgan.Har bir asarida o'ziga xos takrorlanmas saboqlar yashiringan .Har qaysi janrda yozilgan asarlari bo'lmasin hammasida allohga bo'lgan ishq uf urib turadi. Alisher Navoiyning allohga bo'lgan ishqini uni yuksaklikka olib chiqqani xato emas. Uning qalbida hamisha diniga bo'lgan hurmat bo'lgan.Alisher Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, undagi ma'no- mazmunning tuganmas ekanligiga guvoh bo'lamiz .Men ushbu maqola davomida Alisher Navoiyning "Yor uzar bo'lsa muhabbat rishtasi" g'azalini tahlil qilishga harakat qildim.

Alisher Navoiy g'azaliyotida bugungi insoniy, oilaviy munosabatlarda ham ibrat bo'lgulik hayotiy saboqlar, kechinma, mulohazalar mujassam asarlar ko'p. Mana, shunday g'azallardan biri:

Kimki, oning bir malaksiymo parivash yori bor,

Odami bo'lsa, pari birla malakdin ori bor.

Kecha ulkim chirmanur bir gul bila, ne tong, agar

G'unchadek har subh o'lub xandon vashot izhori bor.

Yo'q ajab bulbulg'a gul shavqidin o'lmoq zorkim,

Pardin o'q jismig'a sonchilg'on adadsiz xori bor.

Beling-u la'ling xayoloti bila ko'nglum erur

Ankabutekim,oning jon rishtasidin tori bor.

Sunbuli zulfi agar oshuftadur, ayb etmakim,

Gul yuzida yotqon ikki nozanin bemori bor.

Aylab o'zni mastu bexud, chiqmasun mayxonadin

Kimki, mendek davr elidin ko'nglida ozori bor.

Ey, Navoiy, yor uzar bo'lsa muhabbat rishtasin,

Kelmas o'lsa ul sening sori, sen oning sori bor.

Bu asar Navoiy ijodiy takomilining uchinchi bosqichida yaratilgan va dastlab “Navodir un-nihoya” devoniga kiritilgan. Yakpora tuzilishga ega bu g'azal ramali musammani maqsur vaznida bitilgan. G'azalning birinchi baytiyoq vafo, sadoqat, fidoyilik kabi olijanob insoniy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Sevgidan vafo, sadoqat va albatta fidoyilik bo'lsa u boqiydir. Chin oshiqlar bir biriga o'zaro ishonch orqali bog'lanadilar. Ishonchga sazovar bo'lib yashash ,bir birining ishonchini butun umr oqlab yashash faqat chin oshiqlar qo'lidan keladi holos. Bu kabi chin sevgi sohiblari bobomiz davrida sanoqli bo'lgan. Bizning davrda esa undan ham achinarli ahvol. Sevgi insonlar orasida keyingi o'rinda bo'lib qolgan. Bu Navoiyning shoh baytlaridan bo'lib, unda shoir mazmun salmoqdorligi va ta'sirchanligini tardi aks (ters takror) san'atini «malaksiymo parivash» va «pari birla malak» shaklida mahorat bilan qo'llagan. Shoir vafo asosiga qurilgan hayotning inson farog'ati va kamoloti uchun naqadar ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ikkinchi baytdayoq ko'rsatadi:

Kecha ulkim chirmanur bir gul bila, ne tong, agar

G'unchadek har subh o'lub xandon nashot izhori bor.

U oilaviy farovonlikdan bahramand kishini tongla gul-gul ochilib, chor atrofga chiroy ulashayotgan, muattar hidlar taratayotgan g'unchaga qiyoslaydi. Uchinchi baytdan mavzu va g'oyani badiiy sharhlash boshlanadi. Shoir yuqorida sevikli yor vasli g'animatligi haqida fikr yuritgan edi. Endi o'sha fikrni quvvatlash maqsadida gul va bulbul timsolida ayriliq iztirobi manzaralarini ham tasvirlaydi.

Yo'q ajab bulbulg'a gul shavqidin o'lmoq zorkim

Pardin o'q jismiga sonchilg'on adadsiz xori bor.

Shoirning talqinicha, bulbulning gulga bo'lgan muhabbatiga uning shaydologigina emas, balki hamdardligi ham boisdur. Gulga bulbulning hamdardligi boisi shundaki, bulbulning jismiga pardan yasalgan o'qlar kabi tikanlar sanchilgan. Xuddi shuningdek, gulning badani ham tikanlar bilan o'ralgan. Gulning mana shu ozurdajoilig'iga kuyunish bulbulning gulga mehrini yanada kuchaytirgan. Badiiy fikrning bu qadar topqirlik va nafasat bilan asoslanishi sharq badiiyati ilmida «husni ta'lil» deb yuritilgan. Ramziy obrazlar orasidagi bunday mutanosiblik asosida real insoniy munosabatlar yotadi. Insonning insonga muhabbati zamirida ham mahbubaning faqat tashqi chiroyidagi bahramandlik emas, balki uning ma'naviy olamiga yaqinlik, u bilan hammaslaklik, hamdardlik mujassam bo'ladi. Keyingi baytdan mahbuba go'zalligining muayyan qirralari va go'zallik shavqidagi muhim kechinmalari ayonlashadi:

Beling-u la'ling xayoloti bila ko'nglum erur

Ankabutekim, oning jon rishtasidin tori bor.

Tasvir doirasiga mahbubaga doir bel va lab, muhubga doir ko'ngul obrazlari tortilgan. Ularning tasviri ankabut, jon rishtasi va tor obrazlari orqali yuzaga chiqarilgan. Badiiy mahorat har qanday dag'al jism yoki yoqimsiz jooivorni nafislashtirish quvvatiga ega bo'ladi. Navoiy g'azaliyotida mohirona qo'llangan bunday obrazlardan biri «ankabut»— oddiy hasharot o'rgimchakdir. Bir qarashda, hech bir ijobiy xususiyati sezilmaydigan, xususan, nafis adabiyotdan yiroq bu jonivordan shoir lirik tasvirga xos qanday imkoniyat topdiykin? O'zi to'qigan torlarda o'rmlab

yurish ankabutning hayot kechirish tarzi. Uning hayotini o'sha torlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shoir lirik qahramonning ko'ngli-holati bilan ankabut, ma'shuqa beli bilan ankabut torlari orasida monandlik ko'radi. «Bel» va «la'l» obrazlariga «jon rishtasi» mutanosib keladi va shu usul bilan shoir belining ingichkaligi, labning nafis, yupqaligiga ishora qiladi. Baytdagi obrazlar munosabatidan «bel va la'l — ko'ngulning jon rishtalari», degan fikr anglashiladi. Shu yo'sinda oshiq qalbning muddaosi nazokatli tarzda anglatiladi. Navbatdagi bayt g'azalni yaratish chog'idagi Navoiy ilhomi va san'atkorligining avj nuqtasidan dalolat beradi:

Sunbuli zulfi agar oshuftadur, ayb etmakim,

Gul yuzida yotqon ikki nozanin bemori bor.

Shoir zulf va ko'z tasvirini yaratmoqchi bo'ladi. Hayratomuz yo'l tutib, bu ikki a'zoning jonli tasvirini vujudga keltirish uchun ularni bir-biriga poetik vosita sifatida xizmat qildiradi. Birinchi misra bayt badiiyatidagi oqibatni ifodalasa, ikkinchi misra sababni anglatadi. Navoiy oltinchi baytda lirik mazmunni badiiy yakunlashga o'tadi:

Aylab o'zni mastu bexud, chiqmasun mayxonadin

Kimki, mendek davr elidin ko'nglida ozori bor.

Birinchi va oltinchi baytlardagi «Kimki» so'zi muayyan toifadagi kishilarni anglatadi. Ilk misradagi «Kimki» — «Bir malaksiymo parivash yori bor», ya'ni 1 — 6 bayt oralig'ida tasvirlangan go'zallar ishqidan bahramand baxtiyor kishi obrazi. Oltinchi baytdagi «Kimki» esa — «Bir malaksiymo parivash yor»din hijron chekkan (o'z zamondoshlaridan ozordan o'zga rohat ko'rmagan), 1—6 bayt mobaynida husni jamoli zuhur etgan go'zallar vaslidan benasib «ushshoqi zor» timsoli. «Men» so'zi qo'llanmaganda ham, bu timsol zamiridagi Navoiyning hayotiy siymosini tanib olar edik. Chunki g'azalning navoiyvor tuzilishi, tasvir tabiati, baxtiyor oshiq bilan «Ko'nglida ozori bor», «Mastu bexud» rind qiyofasining qiyosi buni aniq aytib turadi. Bu satrlar g'azal muxlislarida Navoiyning shaxsiy iztiroblariga yana bir bor hamdardlik tuyg'ularini uyg'otadi. Shoir g'azalni naqadar zukko mushohada bilan boshlagan bo'lsa, shunchalik teran hayotiy o'git bilan yakunlaydi:

Ey, Navoiy, yor uzar bo'lsa muhabbat rishtasin,

Kelmas o'lsa ul sening sori, sen oning sori bor.

### **Xulosa.**

G'azallar Alisher Navoiy ijodining kamolga yetgan, gultoji hisoblanadi. Shoir o'z g'azallariga barcha qalb so'zlarini, hayotiy tajribalarini singdirgan. Biz quyida tadqiq etgan "Yor uzar bo'lsa muhabbat rishtasin" satrlari bilan boshlanuvchi g'azali ham Navoiy g'azallari ichidagi dur- u gavhar durdonalaridan biri sanaladi. G'azal Navoiyning "Navodir un - nihoya" devoniga kiritilgan bo'lib, unda yetarli hayotiy tajriba, xayoliy emas mavjud turmush kuzatishlari zaminida yuzaga kelgan ijtimoiy xulosalar mujassamlashgan. Shoir takabburlik, xudparastlik illatlari insoniy fazilatlarga rahna solayotganidan ogohlantiradi. Albatta, bu bugungi kun avlodlari uchun ham yod tushuncha, bunday takabburlikka berilmaslik, ishq Haqiqiyga intilish insonning ezgu maqsadi ekanligini uqtiradi. Navoiyning barcha asarlari oltinga teng, jumladan shoir g'azallari ham ishqiy, diniy- ma'rifiy, pand- nasihat, ijtimoiy- maishiy kabi turlarga bo'linib kurtak yozishga ulgurgan. Biz Alisher Navoiyning barcha g'azallari, lirik merosini chuqur idrok etishimiz, uni qadrlashimiz hamda o'zimiz uchun shoir ijodini ibrat maktabi deb bilishimiz darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Alisher Navoiy (2016) “Xazoyin-ul maoniy”, “Yangi asr avlodi”.
- 2.Hojjahmedov A.(2008) “Mumtoz badiiyat lug‘ati”, “Yangi asr avlodi”.
- 3.Quronov.D(2015)Talqin imkonlari.Turon zamin ziyo.